

Siz – Issiqko‘l markazidasiz

TOP-20



Nimalar qilish mumkin?

Issiqko‘lning asosiy kurorti – Cholpon-Otada va atrofida TOP mashg‘ulotlar

- Ko‘plab sanatoriy yoki pansionatlardan birida dam olish
- Top-toza ko‘l suvida cho‘milish va plyajlarda hordiq chiqarish, eng mashhurlaridan biri – «Oltin qumlar» plyaji
- Ko‘lda yaxta yoki katerda, sup-board yoki kayakda sayr qilish
- Baliq ovlash va eng katta baliqni tutish
- Bolalar bilan Bosteri posyolkasida hordiq: bu yerda mamlakatdagi eng katta – 76 metrlik tomosha charxpalagi, attraksionlar va kichik akvapark bor
- Chingiz Aytmatov nomidagi “Ruh Ordo” madaniyat markaziga tashrif – bu ochiq osmon ostidagi 10 ta mini-muzey
- Milliy cholg‘u asbobi – komuz shaklidagi pirsda suratga tushish
- Petrogliflar muzeyida (Toshlar bog‘i) qoya rasmlarini tomosha qilish
- G‘uj yulduzlar ostida Cholpon-Otaning tor ko‘chalari bo‘ylab tungi ekskursiyaga chiqish
- Butunjahon ko‘chmanchilar o‘yinlari uchun qurilgan ippodromda ot poygalarini tomosha qilish
- Tash Suu yoki Ak-Bermetdagi shifobaxsh issiq buloqlarda cho‘milish
- Grigoryev, Semyonov yoki Chon Ak-Suu daralarida tabiatdan zavqlanish
- Grigoryev darasida tog‘larda otga minib sayr qilish
- Yozgi o‘rmonlar va alp o‘tloqlari bag‘ridagi Yuqori ko‘lda dam olish
- Bosteri bozoridan mazali mahsulotlar xarid qilish
- Issiqko‘l atrofini bir kunda aylanib chiqish – transportli ekskursiya buyurtma qiling

Karakolda qilish mumkin bo‘lgan TOP ishlar (aeroportdan ≈ 200 km)

- Mars sayyorasini eslatuvchi «Ertak» kanyonida tosh ajdarlar va qasrlar oralab sayr qilish
- Paraplanda uchib, Issiqko‘l manzarasini yuqoridan ko‘rish
- Jeti-Og‘uz darasining go‘zalligidan hayratga tushish – qizil qoyalar, «Yaralgan yurak» qoyasi va 50 metrlik «Qizning ko‘z yoshlari» sharsharasi
- Tabiat go‘zalligi va sukunat izlovchilar uchun – o‘tov lagerlari, issiq buloqlar va alp o‘tloqlari bo‘lgan Altin-Arashan darasiga tashrif buyurish



Nimalarni olib kelish mumkin?

- Chakandadan (oblepixa) mahsulotlar – choylar, asalga qorilgan rezavorlar
- Mahalliy qora smorodina murabbosini
- Kigiz buyumlar – masalan, tuflilar
- Quritilgan dorivor o'tlar
- Asal



Nimalarni tatib ko'rish kerak?

- «Issiqko'l shomlari» nomli choy ichimligi
- Katlama – qirg'izcha qatlamali non
- Issiqko'l foreli
- Beshbarmoq
- Palov

